



UDK: 82.091

**Muxayyo SA'DULLAYEVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*  
E-mail: [mukhayyosadullaeva@gmail.com](mailto:mukhayyosadullaeva@gmail.com)  
**Zokir PARDAYEV,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD*  
<https://orcid.org/0009-0001-8458-1476>

*F.f.d X.Sarimsakov taqrizi asosida*

## BOY OBRAZINING ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI GENEZISI VA EVOLUTSIYASI

Аннотация

Ushbu maqolada boy obrazining adabiyotshunoslikdagi genezisi va evolutsiyasi tarixiy-tipologik hamda qiyosiy-adabiy yondashuvlar asosida tadqiq etiladi. Tadqiqotda boy obrazi turli adabiy davrlarda qanday estetik, semantik va ijtimoiy funksiyalarni bajargani aniqlanadi. Antik davrdan to postmodern adabiyotgacha bo'lgan jarayonda boy obrazining axloqiy bahosi, ijtimoiy mohiyati va badiiy vazifalaridagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek adabiyotida boy obrazining jadidchilik, realizm, sovet davri va mustaqillik davridagi talqinlari tarixiy-madaniy kontekstda yoritiladi. Tadqiqot natijalari boy obrazining milliy adabiyotda mutlaq iqtisodiy kategoriya emas, balki ijtimoiy-ma'naviy va axloqiy boy mezonlar asosida shakllangan murakkab badiiy fenomen ekanini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Obrazi, adabiyotshunoslik, genezis, evolutsiya, ijtimoiy tengsizlik, axloqiy baho, realizm, jadid adabiyoti, milliy adabiyot.

## ГЕНЕЗИС И ЭВОЛЮЦИЯ ОБРАЗА БОГАТСТВА И БОГАТОГО ЧЕЛОВЕКА В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Аннотация

В статье исследуется генезис и эволюция образа богатого человека в литературоведении на основе историко-типологического и сравнительно-литературного подходов. Анализируется изменение эстетических, семантических и социальных функций данного образа в различные литературные эпохи — от античности до постмодернизма. Особое внимание уделяется нравственной оценке богатства, его связи с социальными отношениями и внутренним миром личности. Также рассматривается специфика интерпретации образа богатого в узбекской литературе в контексте джадидской мысли, реализма, советского периода и эпохи независимости. Результаты исследования показывают, что образ богатого в национальной литературе формируется не как сугубо экономическая категория, а как сложный социально-нравственный и культурный феномен.

**Ключевые слова:** Образ богатого, литературоведение, генезис, эволюция, социальное неравенство, нравственные ценности, реализм, джадидская литература, узбекская литература.

## THE GENESIS AND EVOLUTION OF THE IMAGE OF WEALTH AND THE RICH IN LITERARY STUDIES

Annotation

This article examines the genesis and evolution of the image of the rich person in literary studies through historical-typological and comparative literary approaches. The research analyzes how the aesthetic, semantic, and social functions of this image have transformed across different literary periods, from classical antiquity to postmodern literature. Particular attention is paid to the moral evaluation of wealth, its social implications, and its psychological consequences for the individual. The study also explores the representation of the rich figure in Uzbek literature within the contexts of Jadidism, realism, the Soviet era, and the post-independence period. The findings demonstrate that the image of the rich in national literature is not treated as a purely economic category but as a complex socio-moral and cultural phenomenon shaped by historical and ideological factors.

**Key words:** Image of the rich, literary studies, genesis, evolution, social inequality, moral values, realism, Jadid literature, Uzbek literature.

**Kirish.** Adabiyot – jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jarayonlarini estetik tafakkur vositasida ifodalovchi muhim madaniy hodisadir. Insoniyat tarixida mulkiy tengsizlik, boylik va kambag'allik masalalari doimo ijtimoiy ong markazida bo'lib kelgan. Shu bois adabiyotda "boy" obrazi tasodifiy yoki ikkilamchi personaj emas, balki jamiyatning iqtisodiy tuzilmasi, axloqiy qadriyatlarini va ijtimoiy munosabatlarini mujassamlashtiruvchi murakkab badiiy fenomen sifatida shakllangan. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham ijtimoiy adolat, halol mehnat va ma'naviy mas'uliyat masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, jamiyat taraqqiyotining barqarorligi nafaqat iqtisodiy o'sish, balki insoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq. Ushbu yondashuv boylik fenomenini faqat iqtisodiy

kategoriya emas, balki ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida adabiyotshunoslikda qayta tahlil qilish zaruratini yuzaga chiqaradi. Mazkur maqolada boy obrazining adabiyotshunoslikdagi genezisi va evolutsiyasi tarixiy-tipologik va qiyosiy-adabiy yondashuvlar asosida o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — boy obrazining turli adabiy davrlarda qanday estetik, semantik va ijtimoiy funksiyalarni bajarganini aniqlash hamda uning badiiy tafakkur taraqqiyotidagi o'rni ilmiy asoslashdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Boy obrazining adabiyotshunoslikdagi talqini ijtimoiy-falsafiy, estetik va madaniy yondashuvlar kesishgan nuqtada shakllangan murakkab ilmiy muammo hisoblanadi. Ushbu obrazni tadqiq etish jarayonida adabiyotshunoslik, sotsiologiya, falsafa va madaniyatshunoslik sohalarida yaratilgan nazariy qarashlar

muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Avvalo, boylik va kapital tushunchasining ijtimoiy mohiyatini anglashda Maks Veberning kapitalistik axloq haqidagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Veber o'zining mashhur tadqiqotlarida boylikni faqat iqtisodiy hodisa emas, balki ma'naviy-axloqiy tizim mahsuli sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv boy obrazining adabiy talqinida uning ijtimoiy legitimligi va axloqiy asoslarini tahlil qilish imkonini beradi. Boylik va shaxs o'rtasidagi ruhiy ziddiyatlarni o'rganishda Erix Frommning "ega bo'lish" va "bo'lish" konsepsiyasi muhim nazariy manba hisoblanadi. Frommga ko'ra, mulkka haddan tashqari bog'lanish shaxsning ichki bo'shlig'i va begonlashuviga olib keladi. Ushbu g'oya modern va modernizm davri adabiyotidagi boy obrazlarining psixologik inqirozini tahlil qilishda samarali qo'llaniladi.

Boy obrazining estetik va semiotik talqinida Rolan Bartning belgi va mif haqidagi qarashlari muhim o'rin tutadi. Bart boylikni barqaror ma'no emas, balki madaniy diskurs orqali shakllanadigan ramziy konstruktsiya sifatida ko'radi. Bu yondashuv postmodern adabiyotda boy obrazining dekonstruktsiyasini tahlil qilish uchun metodologik asos yaratadi. Adabiy personaj va ijtimoiy sinf munosabatlarini o'rganishda Jorj Lukasning realistlik roman haqidagi qarashlari muhimdir. Lukas boy obrazini individual xarakterdan ko'ra ijtimoiy tip sifatida talqin qilib, u orqali jamiyatdagi sinfiy munosabatlar ochib berilishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv XIX asr realizmi doirasida boy obrazining tipologik shakllanishini asoslashga xizmat qiladi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda boy obrazini ijtimoiy-diskursiv fenomen sifatida o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar Scopus indeksli jurnallarda muntazam chop etilmoqda. Jumladan, Poetics, New Literary History, Orbis Litterarum, European Journal of Cultural Studies kabi nashrlarda boylik, sinf va adabiy personajlar munosabatini tahlil qiluvchi maqolalar boy obrazining estetik va ijtimoiy funksiyalarini kengroq kontekstda yoritib keloqda. Ushbu tadqiqotlarda boylik ko'pincha hokimiyat, madaniy kapital va identitet bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Milliy adabiyotshunosligimizda ham boy obraziga doir izlanishlar mavjud bo'lib, ular asosan ijtimoiy adolat, axloqiy mas'uliyat va ma'naviy qadriyatlar kontekstida olib boriladi. O'zbek adabiyotida boy obrazining salbiy va tanqidiy talqinlari ijtimoiy tengsizlik va ekspluatatsiya muammolari bilan bog'lab o'rganiladi. Bu holat boy obrazining madaniy va tarixiy shartlanganligini ko'rsatadi. Xususan, jadid adabiyoti va XX asr realizmi doirasida boy obrazi tanqidiy-estetik yondashuv asosida talqin etilgan. Bu borada Sadridin Ayniyning "Sudxo'rning o'limi" asari alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda Qori Ishkamba obrazi boylikka asoslangan ijtimoiy zulm va axloqiy tubanlikning badiiy timsoli sifatida yaratilgan. Qori Ishkamba boyligi orqali jamiyat ustidan hukmronlik qiluvchi, insoniylikni yo'qotgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Ayniy ushbu obraz orqali boylikning ma'naviy halokatga olib keluvchi kuch ekanini ko'rsatadi. Adabiyotshunoslikda bu asar boy obrazining salbiy ijtimoiy tipi sifatida talqin qilinadi.

Jadid adabiyotida boy obrazi ijtimoiy ongni uyg'otish, adolatsizlikni fosh etish vositasi sifatida xizmat qilgan. Jumladan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida boylik va mulk masalasi murakkab ijtimoiy munosabatlar fonida tasvirlanadi. Romandagi ayrim boy savdogarlar va mulkdorlar obrazi orqali ijtimoiy tabaqalanish, manfaatparastlik va an'anaviy jamiyatdagi iqtisodiy ziddiyatlar ochib beriladi. Qodiriy boy obrazini mutlaq salbiy emas, balki tarixiy sharoit mahsuli sifatida ko'rsatib, uning murakkabligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Cho'lpon asarlarida ham boy obrazi ijtimoiy adolatsizlik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Cho'lponning publitsistik va badiiy asarlarida boylik ko'pincha milliy ongni ezuvchi kuch sifatida talqin qilinadi.

Uning asarlarida boy shaxslar, xalq manfaatiga zid bo'lgan ijtimoiy qatlam vakillari sifatida tasvirlanadi, bu esa boy obrazining milliy-mafkuraviy talqinini yuzaga chiqaradi.

XX asr o'zbek realizmida boy obrazi ijtimoiy-sinfiy qarama-qarshiliklar fonida yanada chuqurlashadi. Masalan, Oybekning "Navoiy" romanida boylik masalasi bevosita markazda bo'lmasa-da, mulkdor va amaldorlar obrazi orqali iqtisodiy kuch va ma'naviy mas'uliyat o'rtasidagi ziddiyat badiiy ifodalanadi. Bu holat boy obrazining bilvosita estetik funksiyasini namoyon qiladi.

O'zbek adabiyotshunosligida boy obrazi ko'pincha ijtimoiy adolat va axloqiy mezonlar asosida baholanadi. Adabiyotshunos olimlar boy obrazining salbiy talqini tarixiy sharoit, mustamlakachilik va sinfiy tengsizlik bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydilar. Shu jihatdan o'zbek adabiyotidagi boy obrazi G'arb realizmidagi burjua obrazidan farqli ravishda, ko'proq axloqiy-hukmiy xarakterga ega. Aniqroq qilib aytilganda, g'arb burjuaziyasida boy obrazi ijtimoiy-iqtisodiy tizimning betaraf elementi sifatida qaralsa, o'zbek adabiyotida esa diniy-axloqiy qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog'langan normativ badiiy konstruktsiya hisoblanadi. Bu obraz orqali adabiyot jamiyatdagi adolat, mas'uliyat va insoniylik mezonlarini baholashga ko'maklashadi. Shu jihatdan, boy obrazi milliy adabiyotda estetik tahlildan tashqari, axloqiy-falsafiy tafakkurning muhim ifodachisi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, o'zbek adabiyotida boy obrazining axloqiy-hukmiy xarakter kasb etishida diniy-axloqiy tafakkur bilan birgalikda jamoaviylik mezonlari hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Milliy va umuman Sharq madaniy tasavvurida boylik o'z-o'zidan ijobiy yoki salbiy hodisa sifatida emas, balki uning manbai va jamiyatga munosabati asosida baholanadi: halol mehnat evaziga orttirilgan boylik ijobiy qadriyat sifatida e'tirof etilsa, zulm, aldov, foiz va harom yo'llar bilan qo'lga kiritilgan mulk keskin salbiy munosabatni yuzaga keltiradi. Shu sababli adabiy matnlarda boylikning miqdoridan ko'ra, uning kelib chiqishi, jamiyat bilan aloqasi va egasining vijdoniy pozitsiyasi markaziy tahlil obyektiga aylanadi. Natijada badiiy talqinda kapital emas, balki axloqiy mas'uliyat va vijdon mezoni ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o'zbek adabiy tafakkurida shaxs individual "men" doirasida emas, balki jamoaviy "biz" tizimi ichida baholanadi; boyning ijtimoiy qimmatini uning elga foydasi, saxovati, yetim-yesirga munosabati va mahalla oldidagi obro'si bilan o'lchanadi. Bu holat boy obrazini doimiy ravishda jamiyat oldidagi mas'uliyat prizmasida ko'rib chiqishga olib keladi va uning axloqiy-hukmiy xarakterini yanada mustahkamlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boy obrazi adabiyotshunoslikda ko'p qirrali va interdisiplinar yondashuvni talab etuvchi ilmiy muammo hisoblanadi. Mavjud tadqiqotlar ushbu obrazning alohida jihatlarini yoritgan bo'lsa-da, uning genezisi va evolutsiyasini kompleks tarixiy-tipologik asosda o'rganish hali ham dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga yo'naltirilgan.

**Tahlil va natijalar.** Qadimgi adabiyotshunoslik manbalarida boylik asosan ilohiy marhamat yoki siyosiy hokimiyat belgisi sifatida talqin etilgan. Antik epos va tragediyalarda boy shaxslar ijtimoiy tuzumning ajralmas qismi sifatida tasvirlanib, ularning boyligi axloqiy muammo darajasiga ko'tarilmagan. Boylik ko'proq tashqi atribut bo'lib xizmat qilgan. O'rta asr adabiyotida esa boylikka munosabat keskin axloqiy tus oladi. Diniy-didaktik matnlarda boy obrazining asosiy vazifasi — dunyoviy manfaatlarining o'tkinchiligi va ma'naviy poklik ustuvorligini ko'rsatishdan iborat bo'lgan. Ushbu davrda boylik ko'pincha gunoh, ochko'zlik va ma'naviy tanazzul ramzi sifatida tasvirlanadi. Uyg'onish davri adabiyotida inson shaxsining markaziy o'ringa chiqishi boy obrazining talqiniga ham sezilarli ta'sir

ko'rsatdi. Boylik endi faqat gunoh belgisi emas, balki inson mehnati va aql-zakovatining natijasi sifatida baholanishni boshlaydi. Ma'rifatparvarlik davrida boy obrazining ijtimoiy mas'uliyati masalasi asosiy o'ringa chiqadi. Bu bosqichda boy shaxs jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yoki unga zarar yetkazuvchi subyekt sifatida talqin qilina boshlaydi. Natijada boy obrazining axloqiy bahosi murakkablashadi va uning estetik vazifalari kengayadi.

XIX asr realizm bosqichi boy obrazining adabiyotshunoslikdagi muhim evolutsion bosqichini tashkil etadi, chunki aynan shu davrda boylik motivi badiiy matnda tasodifiy dekorativ belgi yoki didaktik "gunoh" ramzidan chiqib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishini ochib beruvchi markaziy tipologik mexanizmga aylanadi. Realizm poetikasi hayotning o'zini, ya'ni ijtimoiy munosabatlar, sinfiy tabaqalanish, mulk va mehnat ziddiyatlarini san'atning asosiy obyekt sifatida ilgari surganligi sababli boy obrazi endi individual xarakterdan ko'ra kengroq — ijtimoiy qatlarning timsoli, kapitalistik munosabatlar logikasining personifikatsiyasi sifatida ko'rinadi. Bu bosqichda obrazning estetik funksiyasi ham murakkablashadi: bir shaxs nafaqat konfliktni yuzaga keltiruvchi kuch, balki syujetning harakatlantiruvchi omili, ijtimoiy muhitning "ko'zguisi" va adabiy tahlilning strukturaviy tuguniga aylanadi. Realistik roman va qissa doirasida mulk, meros, kredit-qarz, ish va foyda kabi iqtisodiy kategoriyalar personaj psixologiyasi bilan bog'lanib, boylik shaxs xarakterini shakllantiruvchi, insoniy munosabatlarni buzuvchi yoki qayta tashkil etuvchi kuch sifatida talqin qilinadi; natijada boy obrazi axloqiy hukm doirasidan chiqib, ijtimoiy sababiyat (determinatsiya) qonunlari bilan tushuntiriladigan tipga ko'tariladi. Shuning uchun XIX asr realizmi boy obrazining evolutsiyasida hal qiluvchi bosqich bo'lib, u boylik fenomenini "shaxsiy fazilat nuqsoni" bilan cheklamay, uni tarixiy-iqtisodiy jarayonlar va jamiyat strukturasiidagi ziddiyatlar bilan uzviy bog'lab badiiy umumlashtirish darajasiga olib chiqadi.

XX asr boshlarida modernizm adabiyoti namoyondalari shaxsning ichki olamiga chuqur e'tibor qarata boshlaydilar. Natijada boy obrazining talqini ham tubdan o'zgaradi. Boylik tashqi farovonlik belgisi bo'lsa-da, ichki bo'shliq, begonalashuv va ma'naviy iztirob bilan bog'lab tasvirlana boshlaydi. Bu bosqichda boy obrazining estetik vazifasi o'zgarib, u existensial muammolarni ifodalovchi badiiy vositaga aylanadi. Boylik insonni baxtli qilmasligi g'oyasi asarlarda markaziy o'rinni egallaydi. Postmodern adabiyoti boy obraziga nisbatan ironik va dekonstruktiv yondashuvni taklif etadi. Boylik barqaror qadriyat emas, balki diskursiv konstruksiya sifatida talqin qilinadi. Boy obrazining an'anaviy ma'nolari parodiyalanadi, fragmentatsiyaga uchraydi. Bu davrda boy obrazining ijtimoiy va axloqiy chegaralari buzilib, u ko'p qatlamli semantik tizimga aylanadi. Ushbu davr adabiyoti boy obraziga nisbatan ironik va dekonstruktiv yondashuvni ilgari surib, uni barqaror axloqiy yoki ijtimoiy qadriyat sifatida emas, balki madaniy diskurslar orqali yaratiladigan o'zgaruvchan konstruksiya sifatida talqin qiladi. Ushbu estetik paradigma doirasida boylik shaxsning mohiyati yoki ichki fazilatlarini ifodalovchi belgi bo'lishdan chiqib, til, media, reklama va iste'mol madaniyati vositasida "namoyish qilinadigan" imijga aylanadi. Natijada boy obrazi postmodern matnlarda ko'pincha ironik masofa orqali tasvirlanib, uning an'anaviy "muvaffaqiyat", "kuch" yoki "ijtimoiy ustunlik" kabi ma'nolari shubha ostiga olinadi. Masalan, zamonaviy G'arb postmodern nasrida boy shaxs ko'pincha moliyaviy qudrati bilan emas, balki brendlar, status belgilar va ommaviy e'tirof tili orqali tanitiladi; bu esa boylikning ichki mazmun emas, tashqi belgilar yig'indisi ekanini ko'rsatadi. Dekonstruktiv yondashuv boy obraziga yopishtirilgan ijobiy stereotiplarni parchalab, boylikni shaxsni to'ldiruvchi emas, aksincha uning ichki bo'shlig'i va

begonalashuvini yashiruvchi mexanizm sifatida ochib beradi. Shu jarayonda boy obrazi parodiyalanib, uning "jiddiy" va "nufuzli" diskursi reklama shiorlari, iste'mol ro'yaxatlari va ommaviy madaniyat kodlari bilan almashtiriladi. Fragmentatsiya esa boy obrazining yaxlit xarakter sifatida mavjud bo'lish imkonini yo'qqa chiqaradi: u bitta shaxs emas, balki turli ijtimoiy rollar, til registrlari va madaniy belgilar majmuasiga aylanadi. Natijada postmodern adabiyotda boy obrazi ijtimoiy tip yoki axloqiy hukm obyekt emas, balki kapitalizmning ramziy ishlab chiqarish mexanizmlarini fosh etuvchi estetik vosita vazifasini bajaradi. Bu holat boylik fenomenining barqaror va universal qadriyat sifatidagi maqomini inkor etib, uni tarixiy, madaniy va diskursiv sharoitlarga bog'liq nisbiy tushuncha sifatida qayta talqin qilishga olib keladi.

Milliy adabiyotimizda boy obrazi tarixiy jarayonlar, ijtimoiy tuzum va axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda shakllangan va evolyutsiyalashgan murakkab badiiy fenomen hisoblanadi. Boy obrazi qadimgi va an'anaviy tafakkurda asosan axloqiy-me'yoriy mezonlar asosida baholangan bo'lsa, XX asr boshlaridan boshlab u ijtimoiy-sababiy va estetik tahlil obyektiga aylangan. Tadqiqot natijalaridan milliy adabiyotimizda boy obrazi hech qachon mutlaq iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilinmagani haqida xulosaga kelinishi mumkin. Boylikning o'zi emas, balki uning manbai, jamiyatga munosabati va insoniy qadriyatlarga ta'siri obrazning ijobiy yoki salbiy baholanishini belgilovchi asosiy mezon bo'lib kelgan. Shu jihatdan, milliy adabiyotdagi boy obrazi G'arb realizmidagi burjua obrazidan farqli ravishda ko'proq axloqiy-hukmiy xarakterga ega.

Jadid adabiyotida boy obrazi ijtimoiy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan chambarchas bog'langan holda shakllanadi. Bu bosqichda boy obrazining salbiy talqini individual xarakter nuqsonlaridan ko'ra, jamiyatdagi eskicha ijtimoiy munosabatlar va iqtisodiy tuzum bilan izohlanadi. Natijada boy obrazi "yovuz shaxsdan" "ijtimoiy mexanizm mahsuli" darajasiga ko'tariladi. Bu holat obrazning estetik murakkabligini oshirib, uni adabiy-tipologik jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Realistik an'anada, xususan, XX asr boshlaridagi milliy nasrda boy obrazi ijtimoiy adolatsizlik va ekspluatatsiya mexanizmlarining personifikatsiyasi sifatida mustahkamlanadi. Sudxo'rlik, foiz, qarz va mulkiy ustunlik motivlari orqali boy obrazining ma'naviy tanazzuli badiiy jihatdan asoslab beriladi. Bu bosqichda boy obrazi asosan konflikt yaratuvchi kuch sifatida namoyon bo'lib, asar syujeti va g'oyaviy yo'nalishini belgilovchi markaziy elementga aylanadi.

Sovet davri adabiyotida boy obrazi, avvalo, hukmron mafkuraning sinfiy-nazariy konsepsiyalari bilan oldindan belgilangan semantik matritsa ichida talqin qilinadi. Sotsialistik realizmning normativ poetikasi badiiy voqelikni "tarixiy zaruriyat" va "sinfiy kurash" mantiqiga bo'ysundirishni talab etgani sababli boy (mulkdor) obrazi ko'pincha antagonist tip sifatida kodlanadi: u ijtimoiy taraqqiyotga qarshi turuvchi kuch, mehnatkash ommaga zid manfaat egasi, "eski tuzum qoldig'i" yoki "ekspluatator" funksiyasini bajaradi. Bunday kodlashda obrazning individual-psixologik ko'lamidan ko'ra uning funktsional roli (ya'ni syujetda qanday "ijtimoiy vazifa"ni bajarishi) ustun qo'yiladi: boy obrazi konfliktning sababchisi, adolatsizlikning personifikatsiyasi, "yangi" bilan "eski" o'rtasidagi qarama-qarshilikni keskinlashtiruvchi mexanizm sifatida ishlatiladi. Natijada obrazning badiiy erkinlik chegaralanib, u ko'pincha qat'iy axloqiy-hukmiy doirada — salbiy tipologiya, keskin kontrast, stereotip belgilar (ochko'zlik, manfaatparastlik, xasislik, zulm) orqali barqarorlashtiriladi; bu esa boy obrazining ko'p qatlamli semantik imkoniyatlarini toraytiradi.

Biroq mazkur ideologik standartlashuv boy obrazining estetik potensialini to'liq so'ndirmaydi. Chunki badiiy

tafakkur, hatto normativ poetika sharoitida ham, inson va jamiyat munosabatlarini faqat "oq-qora" sxemaga sig'dira olmaydi. Shu bois ayrim asarlarda boylik masalasi "sinfy ayblov" doirasidagina emas, balki axloqiy tanlov va vijdoniy mas'uliyat mezonlari orqali ham problemalashtiriladi: mulk "yovuzlikning o'zi" sifatida emas, balki insonni sinovdan o'tkazuvchi, shaxsiy pozitsiyani ochib beruvchi omilga aylanadi. Bunday hollarda boy obrazining ichki mexanizmi murakkablashadi: u faqat dushman timsoli bo'lib qolmay, jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar bilan ma'naviy qadriyatlar to'qnash keladigan nuqtani ko'rsatadi; boylik va vijdon, manfaat va mas'uliyat, shaxsiy farovonlik va ijtimoiy burch o'rtasidagi ziddiyatlar badiiy konfliktni chuqurlashtiradi. Ayniqsa, keyingi davr nasrida (ijtimoiy-psixologik proza kuchaygan sari) personajlarning motivatsiyasi, ichki ikkilanishi, "yashirin" axloqiy drammatizmi ko'proq tasvirlanishi natijasida boylik fenomeni ham biryozlama "ayblash obyekti" bo'lishdan chiqib, insoniy munosabatlar va ma'naviy mezonlarni sinovdan o'tkazuvchi estetik kategoriya sifatida ko'rinish boshlaydi.

Shu ma'noda, sovet davrida boy obrazining evolyutsiyasini ikki tendensiya kesishgan nuqtada ko'rish mumkin: bir tomonda — ideologik kodlash tufayli tipning qat'iy semantik chegaralanishi (sinfy dushman, ekspluatator, "eski dunyo" timsoli), ikkinchi tomonda esa — badiiy tafakkurning tabiiy qarshiligi natijasida yuzaga keladigan murakkablashtirish jarayoni (vijdon, mas'uliyat, insoniy tanlov, psixologik motivlar). Demak, sovet davri adabiyotida boy obrazi ko'pincha normativ-sinfy sxema asosida qurilgan bo'lsa-da, ayrim matnlarda u insoniy muammolarni "sinf" dan tashqariga olib chiqadigan, boylikning ijtimoiy vazifasi bilan shaxsning ma'naviy mohiyati o'rtasidagi taranglikni

ifodalaydigan estetik vosita sifatida saqlanib qoladi. Bu holat boy obrazining tarixiy-evolyutsion tizimda "faqat ideologik belgi" emas, balki turli davrlarda turlicha mazmun bilan to'ladigan badiiy fenomen ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mustaqillik davriga kelib, bozor iqtisodi va xususiy mulk munosabatlarining legitimlashuvi milliy adabiyotda boy obrazining semantikasini sezilarli darajada yangilaydi. Endilikda boy obrazi faqatgina salbiy tip sifatida emas, balki tadbirkorlik, tashabbus va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq murakkab ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida tasvirlana boshlaydi. Shu bilan birga, iste'molchilik, namoyishkorlik va ma'naviy bo'shliq kabi xavfli jihatlar ham badiiy tahlildan chetda qolmaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, milliy adabiyotimizda boy obrazi axloqiy baholash -ijtimoiy-sababiy tahlil psixologik va madaniy murakkablik bosqichlari orqali evolyutsiyalashgan. Ushbu evolyutsiya jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti bilan bir qatorda, adabiy tafakkurning chuqurlashuvi va estetik mezonlarning boyishi bilan ham bog'liqdir. Boy obrazi shu tariqa milliy adabiyotda jamiyatning ijtimoiy ongini, axloqiy ideallarini va tarixiy o'zgarishlarini badiiy umumlashtiruvchi muhim nazariy kalit vazifasini bajaradi.

**Xulosa.** Boy obrazining adabiyotshunoslikdagi genezisi va evolyutsiyasi adabiyot va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Ushbu obraz orqali jamiyatning iqtisodiy tuzilmasi, axloqiy qarashlari hamda shaxsiy identitet muammolari badiiy ifodalanadi. Kelgusida boy obrazini solishtirma adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va diskursiv tahlil asosida chuqurroq o'rganish mazkur mavzuning ilmiy istiqbollari yanada kengaytiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Weber, M. (2001). *The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism*. London: Routledge.
2. Fromm, E. (1976). *To Have or To Be?* New York: Harper & Row.
3. Barthes, R. (1972). *Mythologies*. New York: Hill and Wang.
4. Lukács, G. (1971). *The Theory of the Novel*. Cambridge, MA: MIT Press.
5. Eagleton, T. (2002). *Marxism and Literary Criticism*. London: Routledge.
6. Galsworthy, J. (2004). *The Forsyte Saga*. London: Penguin Classics.
7. Dickens, C. (2003). *Great Expectations*. Oxford: Oxford University Press.
8. Balzac, H. de. (1995). *Le Père Goriot*. Paris: Gallimard.
9. Zola, É. (1998). *Germinal*. London: Penguin Classics.
10. Bourdieu, P. (1986). The forms of capital. In J. Richardson (Ed.), *Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education* (pp. 241–258). New York: Greenwood.
11. Jameson, F. (1991). *Postmodernism, or, The Cultural Logic of Late Capitalism*. Durham: Duke University Press.
12. Ayniy, S. (1984). *Sudxo'ring o'limi*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
13. Qodiriy, A. (2018). *O'tkan kunlar*. Toshkent: Sharq.
14. Cho'lpon. (2005). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Akademiya.
15. Oybek. (2014). *Navoiy*. Toshkent: O'zbekiston.
16. Karimov, N. (2011). *Jadid adabiyotida ijtimoiy ong masalalari*. O'zbek tili va adabiyoti, 4, 12–18.
17. Qo'chqorov, R. (2018). *O'zbek realizmida ijtimoiy tip va badiiy obraz*. Toshkent: Fan.